SIRDARYO VILOYATI BOYOVUT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 2 - may 120-9-123-Q/23 Boyovut tumani hokimligi

“Boyovut dehqon bozori” atrofiga 3.28 “To‘xtab turish taqiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi *“Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”*gi 172-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilova *“O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risida”*gi Nizom va Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi 342-son qarori 1-ilova *“O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish”* Qoidalarining ijrosini ta’minlash, Boyovut tumani markazini kesib o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida transport vositalariniing tirbandliklar yuzaga kelishini oldini olish, piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, Boyovut tuman ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 15-dekabr kungi 2899-sonli xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25- moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Boyovut tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 20-aprel kungi 39/1626-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boyovut tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (A.Abduvoxidov) tomonidan Boyovut shaharchasi hududidan o‘tgan 4P-30 avtomobil yo‘lining 48-kmda transport vositalarining harakatini tartibga solish hamda yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida “Boyovut dehqon bozori” qarshisiga hamda chap tomoniga jami 2 dona 3.28 “To‘xtab turish taqiqlanadi” yo‘l belgilari belgilangan tartibda o‘rnatilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Abramov) va tuman davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlariga ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalarini mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishiga hamda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Boyovut tuman hokimligi matbuot xizmati (F.Po‘latov)ga ushbu qarorni tuman hokimligi rpasmiy veb sayitiga joylashtirilish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (K.Abdaliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Uralova**